Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishla...

ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Shu o‘rinda, Prezidentimizning 2020-yil 27-iyul kuni yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar muhokamasi yuzasidan yig‘ilish o‘tkazganliklari va bu yig‘ilishda:

“Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish tadbirkorlarni jazolash, ularning faoliyatiga to‘sqinlik qilish degani emas. Bu ayniqsa pandemiya davrida katta ahamiyatga ega. Joylarda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali mayda korrupsiyaga ham qat'iy choralar ko‘rish zarur”,[4] – deb aytgan gaplaridan bilishimiz mumkinki, Prezidentimizning qanchalik darajada iqtisodiyotimizni jahon iqtisodiyoti darajasiga, olib va bu illatlarni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish uchun say-harakat qilayotganliklari, bunga yaqqol dalildir.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirishni ta’minlash mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, xalq farovonligini oshirish va global bozorda raqobatbardoshliligini ta’minlash hozirgi kunning asosiy vazifalardan biridir. Shu bilan birga, barqaror rivojlanish uchun ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish, ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlik muhitini yaxshilash muhim ahamiyatga ega. Davlat tomonidan iqtisodiy islohotlarning davom ettirilishi va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash, ham bu jarayonda hal qiluvchi omillardan biridir. Mazkur yo‘nalishdagi chora-tadbirlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi O‘zbekistonni barqaror iqtisodiyotni vujudga keltirishi bilan birgalikda, mintaqaviy va global iqtisodiyotda yetakchi o‘ringa olib chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan ma’lumotlar ro‘yxati:

1.https://www.bbc.com/uzbek/lotin-38351765. [1]
2.https://uz.wikipedia.org/wiki/Yashirin_iqtisodiyot. [2]
3.https://uz.wikipedia.org/wiki/Korrupsiya. [3]
4.https://kun.uz/uz/news/2020/07/27/yashirin-iqtisodiyotni-qisqartirish-va-korrupsiyaning-oldini-olish-masalalari-muhokama-qilindi. [4]

AKSIZ SOLIG‘I VA UNING IQTISODIYOTDAGI O‘RNI

Chorshanbayev Umurzoq
Guliston Davlat Universiteti Buxgalteriya hisobi va moliya” kafedrasi o‘qituvchisi

Sharobboyev Asilbek
Guliston Davlat Universiteti “Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar” fakulteti talabasi.

Annotatsiya: “Aksiz solig‘i va uning iqtisodiyotdagi o‘rni” mavzusidagi maqolada aksiz solig‘ining mohiyati, uning zamonaviy iqtisodiyotdagi ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari atroflicha yoritib berilgan. Maqolada aksiz solig‘ining nazariy asoslari, soliqqa tortish mexanizmlari, soliq stavkalarini belgilash tamoyillari hamda soliq ma'muriyatchiligi masalalari kompleks tarzda o‘rganilgan.

Tadqiqot davomida aksiz solig‘ining fiskal, tartibga soluvchi va ijtimoiy vazifalari tahlil qilingan. Maqolada aksiz solig‘ini undirish amaliyotidagi mavjud muammolar aniqlangan va ularni hal etish yo‘llari taklif etilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va xalqaro tajribani o‘zlashtirish masalalari ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: aksiz solig‘i, bilvosita soliqlar, soliq stavkalari, soliq ma'muriyatchiligi, soliq nazorati, raqamlashtirish, soliq siyosati, byudjet daromadlari.

Published: 23.12.2024

Cite this article: Chorshanbayev Umurzoq, Sharobboyev Asilbek (2024). Aksiz solig‘i va uning iqtisodiyotdagi o‘rni. Emro Science and Education, 1(4). https://journal.emro.uz/public/maqola/970

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Kirish: Zamonaviy iqtisodiyotda soliqlar davlatning moliyaviy asosini tashkil etib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim vositasi hisoblanadi. Ayniqsa, aksiz solig‘i o‘zining ko‘p qirrali tabiati bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu soliq turi nafaqat davlat byudjetining muhim daromad manbai, balki iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Aksiz solig‘i - davlat moliya tizimining eng muhim elementlaridan biri bo‘lib, maxsus tovarlar va xizmatlardan olinadigan bilvosita soliq hisoblanadi. Bu soliq turi bevosita tovar narxiga qo‘shilib, oxir-oqibat iste'molchi tomonidan to‘lanadi. Aksiz solig‘i orqali davlat nafaqat byudjet daromadlarini shakllantiradi, balki ma'lum tovarlar iste'molini tartibga solish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi.

Aksiz solig‘i quyidagi asosiy mahsulot turlariga joriy qilinadi:

- Tamaki mahsulotlari;
- Alkogol mahsulotlari
- Neft mahsulotlari;
- Polietilen granulalari;
- Mobilь aloqa xizmatlari;
- Xushbo’ylashtiruvchi yoki rang beruvchi qo’shimchalarsiz oq shakar;

Tarkibida shakar yoki boshqa shirinlashtiruvchi yoki xushbo’ylashtiruvchi moddalar bo’lgan, gazlangan hamda iste’mol qadog’iga qadoqlangan ichimliklar;

- Energetik va tetiklashtiruvchi ichimliklar

Aksiz solig‘i ko‘p qirrali vazifalarni bajaradi:

- Fiskal vazifa - davlat byudjetini to‘ldirish manbai sifatida xizmat qiladi;
- Tartibga soluvchi vazifa - zararli mahsulotlar iste'molini cheklash va hashamatli tovarlardan foydalanishni tartibga solish;
- Ijtimoiy vazifa - aholi salomatligini himoya qilish va ijtimoiy adolatni ta'minlash;
- Iqtisodiy vazifa - ishlab chiqarish va iste'molni muvozanatlashtirish.

Soliqqa tortish mexanizmi:

- Qat'iy belgilangan stavkalarda;
- Tovar qiymatiga nisbatan foizlarda;
- Kombinatsiyalashgan usuldaSoliq to‘lovchilar.

Aksiz solig‘ini to‘lovchilar sifatida quyidagilar belgilangan:

- Aksiz to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchilar;
- Import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar;
- Maxsus ruxsatnomaga ega bo‘lgan sotuvchilar.

Hozirgi vaqtda soliq tizimida aksizlar davlat moliyaviy resurslarini shakllanib borishi uchun muhim rol o‘ynaydi. Alohida tovarlardan aksiz solig‘ini undirish zarurligi ulardan budjetni to‘ldirishning qo‘shimcha manbayi sifatida foydalanishdan tashqari, alohida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish zarurligi bilan ham bog‘liqdir.

Ular jumlasiga:

1. Atrof muhit holatiga va inson salomatligiga zarar keltiradigan tovarlarlar iste’molini cheklash , ya’ni alkogol va tamaki mahsulotlari, avtomobil benzini.

2. Yuqori daromad olinadigan aholi iste’moli daromadlarini qayta taqsimlashga bo‘lgan ehtiyojlar.

3. Davlat monopoliyasida bo‘lgan (neft, gaz) mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiyadan kelgan yuqori daromadni qayta taqsimlashga bo‘lgan ehtiyoj kabilarini kiritish mumkin Aksizlar asosan atrof –muhitga va inson salomatligiga zarar keltiradigan hamda zebziynat buyumlaridan undirila boshlangan. ushbu yondashuvga asosan, gilamlar,

billur buyumlar, markali vinolar, tabiiy teridan tikilgan kiyimlar aksiz solig‘i undiriladigan tovarlar ro‘yhatidan chiqarilgan.

Xulosa: Aksiz solig‘i zamonaviy iqtisodiyotda muhim rol o‘ynaydi. U nafaqat davlat byudjetini to‘ldirish manbai, balki iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tartibga solish vositasi hamdir. Soliq tizimining samaradorligini oshirish uchun doimiy ravishda monitoring olib borish va xalqaro tajribani o‘rganish talab etiladi.

Tavsiyalar:

- Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish;
- Raqamli texnologiyalardan keng foydalanish;
- Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish;
- Soliq stavkalarini optimallashtirishda davom etish;
- Nazorat tizimini yanada takomillashtirish.

Aksiz solig‘i tizimini rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishi bo‘lib qolaveradi. Bu borada ilg‘or tajribalarni o‘rganish va joriy etish, shuningdek, milliy xususiyatlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri). – T.: 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PF-101-son Farmoni, 2021 yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Aksiz solig‘i stavkalari to‘g‘risida"gi Qarori, 2023 yil.
4. Malikov T.S., Haydarov N.H. "Soliqlar va soliqqa tortish". Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi rasmiy veb-sayti: www.soliq.uz
6. 14. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy veb-sayti: www.mf.uz

BYUDJET JARAYONINI BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISH ORGANLARI ULAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH

Xajiboyev Amirbek Ortiqboy o`g`li
Guliston Davlat Universiteti talabasi
Amirbek2006@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada byudjet jarayonini boshqarish va tartibga solish organlarining roli, ularning vazifalari va faoliyatining samarali muvofiqlashtirilishi haqida so‘z boradi. Byudjet tuzish, tasdiqlash, amalga oshirish va nazorat qilish jarayonlari bosqichma-bosqich ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, byudjet jarayonida yuzaga keladigan muammolar va uni takomillashtirish yo‘llari ham tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: byudjet, byudjet jarayoni, byudjetni boshqarish, moliyaviy nazorat, muvofiqlashtirish, davlat byudjeti

Kirish.

Byudjet jarayonini boshqarishning mohiyati bu byudjet jarayoni davlatning moliyaviy rejasi bo‘lib, u davlat resurslarini jalb qilish va taqsimlashning asosi hisoblanadi. Bu jarayon davlat siyosatini moliyaviy jihatdan ifodalash imkonini beradi va davlat maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘lgan vositalarni belgilaydi. Byudjet